



RAUF PARFI IJODIDA O'XSHATISHLAR TALQINI

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Uzb-AU-25 guruhi talabasi

Rahimjonova Sadoqat

Ilmiy rahbar

Ibragimova Irodaxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, mohir tarjimon va bir qator dunyo miqyosdagi mukofotlar sovrindori ma'rifatparvar shoir Rauf Parfi hayot davri bilan birgalikda ijodi va undagi o'xshatishlar tahlil qilingan. U o'z asarlarida Vatan, erk va muhabbat tushunchalarini o'ziga xos va betakror tarzda talqin etadi. Ushbu uch idrok Rauf Parfi ijodida asosiy o'rinda turadi. Maqola yozuvchining ijodida o'xshatishlarni tahlil qilar ekan shu bilan birga uning yorqin va o'chmas xotirasi yod etadi.

Kalit so'zlar. Vatan, erk, muhabbat, o'xshatish, ijod.

“Rauf Parfi ijodi uch hissiy idrok asosida turadi, bular: Vatan, erk, muhabbat. Dunyodagi hamma shoirlarda shunday, deyishingiz mumkin. Bu fikrda jon bor, albatta. Biroq o'zbek uchun Vatan dardi, Erk dardi dunyodagi boshqa barcha xalqlardagidan ko'ra deyarli boshqacha, o'ziga xos ekanini, muhabbat esa Hodi Toktosh aytganidek eski narsa bo'lgani bilan har bir yurak uni yangilaganidek, bu uch buyuk hissiy idrok muammolari Rauf Parfi ijodida o'ziga xos va betakror ravishdagi poetik talqinni topadi”⁴². Albatta, o'zbek she'riyatida o'ziga xos poetik olami bilan ajralib turuvchi Rauf Parfi boshqa yozuvchilar singari Vatan va erk haqida qalam tebratguvchi va muhabbat kuychisi hisoblanadi. Bilamizki, sho'rolar zamonida o'zbek adabiyoti tarixidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqich bo'ldi. O'sha paytda G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Abdulla Qodiriy singari Rauf Parfi ham o'z ijodida ozodlik g'oyasini ilgari suradi. Tursunali Alloh in'om etgan qismatga ko'nib yashaydi. Muhabbat va farzandlar sog'inchi ila hayot

1. ⁴² Baxtiyor Nazarov. Rauf Parfi portretiga chizgilar & Rauf Parfining o'zi o'qigan she'rlar | Xurshid



kechiradi. U butun umrini ijodga bag'ishlaydi.

Ijod - bu insoniyatning ichki kechinmalari, ijtimoiy orzu-umidlari muammolarini ifoda etuvchi yaratiqdir. Shoirlar esa o'zining hissiyotlarini, kechinmalarini nazm tarzda ifoda etadi. Rauf Parfi ham o'zidagi uch idrokni ijodida ommaga yoritib beradi.

O'xshatish - bir narsa yoki hodisaning belgi-xususiyatlarini yanada yorqinroq ko'rsatish uchun uni boshqa bir o'xshash narsaga qiyoslashdir. Ikki narsani bir-biriga solishtirish orqali tasvirni jonlantirish.

Rauf Parfi ijodi tasvirlarga boy, og'ir falsafiy, sodda yoki dilga yaqin. U xalq og'zaki ijodidan mohirona foydalangan. Uning she'rlarining har bir satrida qalb og'rig'i, iztirob va umid mujassam etgan.

*Balki o'chgan edim yodingdan,
Shirin xayolingni buzdimmi?
Laylo, Laylo, sening yoningda
Yaproq kabi ko'rdim o'zimni,
Shirin xayolingni buzdimmi?*

Uzoq vaqtlar o'tib uning yodidan o'chganligi, uni yana ko'rib uning shirin xayolini va osoyishta hayotini buzganligini va yana uning ismi bilan murojaat qilib o'zini uning yonida yaproq kabi ojiz ekanligini aytib bermoqda.

Ushbu misralar tarkibida o'xshatishni ko'rishimiz mumkin, ya'ni "Yaproq kabi ko'rdim o'zimni" daraxtdan uzilgan o'zini shamolda uchayotgan ojiz bargday his qilmoqda.

*Seni o'ylab kelmaydir uyqu -
Qora tunning o'zga sehri bor.
Tushlarimda topay deb gulro'
Men uxlarman mangu ehtimol.
Go'zal tushlar tilayman, Laylo...*

Ishq azobi tufayli turli o'lar unga tinchlik bermayotgani, kechasi uyqusizlik ila tunni o'tkazgani, tunni sehrli deya ta'riflab, tushida yorini ko'moqlikni iltijo qilmoqda. Agar u bu dunyoda yoriga yetishmasa, abadiy uyqu menga ma'qul deya, unga shirin tushlar tilamoqda.

Ushbu misralardagi o'xshatish esa tunni sehrli ekanligi haqida so'zlab bermoqda. Mangu uyqu orqali o'limga ishora qilmoqda. Go'zal tush deya uni tinch orom olishini nazarda tutmoqda.

*Yana paydo bo'lding yo'limda,
Yo'llaringda yana bo'zladim.
Bechora qalb sening qo'lingda,
Ko'zlarimda mening ko'zlarim.
Nechun paydo bo'lding yo'limda?..*

U taqdirning kutilmagan o'yini, shu vaqtgacha uni unutishga harakat



qilgani, shunga qaramay yana u uning yo'lida paydo bo'lgani uning qalbi yo'llarida zor-intizor bo'lib kutganligi haqida so'zlab bermoqda. Shu bilan birga she'r oxirida unga savol bilan murojaat qilmoqda: "Nechun paydo bo'lding yo'limda"

"Bechora qalb sening qo'lingda" u hozirgi payda o'xshatish orqali qalbnining holatini ko'rsatib bermoqda. Uning qalbini Layloning rahm-shafqatiga bog'liq ekanligi haqida gapirib, qalbining chorasiz ekanligini ko'rsatib bermoqda.

"Shuhrat so'zining ma'nosi mashhurlik, el-yurtga tanilish, uzoq-yaqinlar o'rtasida e'tibor topish, ajabtovur dovrudan iborat bo'lsa, biru-borning inoyati tufaylimi, fe'lidagi allaqanday jozib va yoqimtoyligi sabablimi, dastlabki yozgan she'rlariyoq ohanraboli bo'lgani uchunmi yoki shularning barchasi yalakat birlikda nasib etgani bo'ismi, harqalay, yuqorida keltirilgan so'z zamiridagi iqbol Rauf Parfi manglayiga tengqurlari, davradoshlari ichida anchagina vaqtli qo'ndi va aytish mumkin-ki, uni nainki, butun umr tark etmadi, hatto, yildan-yilga kuchayib bordi, uning ixlosmandlari safini kengaytirdi, o'ylanmanki, bu jarayon yana uzoq davom etadi".⁴³ "Bir kundayoq mashhur bo'lgan shoir" Rauf Parfining she'rlarini o'qir ekanmiz, u o'sha paytda adabiyotimizda urf bo'lmagan mavzularda qalam tebratganining guvohi bo'lamiz. Rauf o'zini, ko'nglini, Vatan dardini, armonini, o'sha davr kurashlarini qog'ozga tushirdi. U hech o'zini o'ylamadi, chunki u shon-shuhratga o'ch emas edi. Uning she'rlarini o'qishning bugungi kun adabiyoti uchun muhimligi shundaki - bu shoirning oliyjanobligida. Barcha she'rlarda Vatan dardi, uning erki va muhabbatni da'vat etadi. O'quvchi uning lirikasida nafaqat badiiy-estetik zavq, balki ma'naviy ozuqa va kamolotga yetishadi. U Vatanni jondan aziz bilguvchilardan edi. Shoirning yurti Turkiston edi, she'rlarida ota-bobolarimiz birligi haqida orzu qilardi, Vatanning qismatiga achinib, kuyib uni qalamga olar edi.

Xulosa o'rnida shuni bilishimiz mumkinki, Rauf Parfi ijodi hamisha tillarda takrorlanib turadigan shoirdir. Adabiyot doim yangidan-yangi iste'dodlarni kutib yashaydi. Rauf Parfi ham shundaylar sarasiga kiradi. U "Laylo" she'rida o'z hissiy kechinmalari va ruhiy iztirob ta'sirida yozgan. U Laylo timsolida shunchaki ayol obrazini emas, balki yetishib bo'lmaydigan orzu, armon va go'zallikni tasvirlaydi.

2. ⁴³ Baxtiyor Nazarov. Rauf Parfi portretiga chizgilar & Rauf Parfining o'zi o'qigan she'rlar | Xurshid



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turkiy adabiyot durdonalari. Rauf Parfi Shavkat Rahmon. O'zbekiston: Toshkent, 2022.
2. <https://oyina.uz/uz/article/2477>
3. Rauf Parfi - Vikipediya
4. Baxtiyor Nazarov. Rauf Parfi portretiga chizgilar & Rauf Parfining o'zi o'qigan she'rlar | Xurshid Davron kutubxonasi
5. <https://scientific-jl.com/obr/article/view/22985>